

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**GEOGRAFIYA DARSLARIDA XORIJIY MAKtablarda TASHKIL ETILADIGAN  
TA'LIM METODLARINI O'RGANISH VA MAMLAKATIMIZ MAKtablARIDA  
QO'LLASH**

**Xamrayeva Feruza Asrorovna**

**Berdiqulova Odina Baxtiyor qizi**

*O'zbekiston-Finlandiyapedagogika instituti Aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi  
(Geografiya) bo'limi 2-kusr magistr*

**Annatatsiya** Xorijiy maktablarda geografiya fani o'qitilishini o'rganishdan asosiy maqsad chet el maktablarining o'qituvchi va o'quvchi o'rtaсидаги о'заро qulay va teng hamjihatlikda tashkil etilagan o'ziga xos bo'lgan metodlar va vositalar bilan tanishishdir. Rivojlangan davlatlarda maktab dasturlari to'g'ri tashkil etilishi o'quvchilarining fanga bo'lgan qiziqishi, mavzularni o'rganishga nisbatan ma'sulyatlil bo'lishga olib keladi. Geografiya darslarini tashkil etishda rivojlangan davlatlar uslublarni tahlil qilgan holda olib borilishi yoshlarni kelajakda orzu maqsadlariga erishish yo'lida dadil qadam tashlashlari uchun zamin bo'ladi deyish mumkin.

**Kalit so'zlar:** ta'lif, erkin fikrlash, metod, metodlar, tatqiqot metodlar, taqqoslash metodlari, statistik tahlillar, sog'lom va erkin muhit

**Kirish:** Ta'lif sifatini yanada oshirishda ko'proq rivojlangan davlatlar ta'lif texnologiyalarini o'rganish shu bilan birgalikda ularni amalyotda qo'llash samaradorlik ko'rsatkichlarini oshishiga sabab bo'ladi. Zero ki xorijiy davlatlarning rivojlanganlik darajasida ko'tarilishining asosiy omillari bu ta'lif sifatini yuqoridaligi hisoblanadi. Ushbu maqolada jahonda rivojlanganlik darjasini bilan ajralib turadigan davlatlar ta'lif tizimidagi uslublar va ularning mohiyati, mazmunining afzalliklariga to'xtalib o'tamiz.

**Asosiy qism:** Rivojlangan (Fransiya, Yaponiya, Xitoy va boshqalar) mamlakatlar markazlashtirilgan maktab ta'lif tizimida standartlashtirilishini ta'lif vazirliklari tomonidan har doim o'quv jarayonini, o'quv rejalarini va o'quv dasturlarini nazorat qilib kelinadi. Chet el maktablarda geografiya fanini aytish mumkinki klassik fanlardan biridir. Geografiya fanini o'rganish boshqa ko'plab gumanitar fanlarni o'rganishdan avval boshlangan. Bu bilan odamning o'zi yashaydigan muhitni, unga yaqin hududlarni yoki chekka tomonlarni o'rganishga intilishi ulanning haqiqiy tug'ma istedodi borligi bilan takidlashimiz mumkin. Ammo maktablardagi geografiya fanini butun tarixi davomida roli va mazmuni hozirgi kunda ham o'zgarmagan.

Maktab geografiyasi G'arbiy Yevropa mamlakatlarida (Fransiya, Germaniya, Italiya, Skandinaviya mamlakatları va boshqalar) hamda Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida (Polsha, Chexiya, Vengriya, Bolgariya va boshqalar) o'zining mavqeい va barqarorligini hamma vaqt saqlab qolishga erishgan. Xuddi shu narsa Osiyo, Lotin Amerikasi, Avstraliyaning ko'plab mamlakatlariga ham tegishli. Aynan mana shu

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

davlatlarga bo'lgan qiziqish ularning geografiya fanini mustahkam va sezilarli darajada yuksalishiga zamin bo'lgan deyishimiz mumkin. Bunday davlatlarga AQSH, Buyuk Britaniya, Xitoy va Yaponiya yorqin misol bo'la oladi.

Ingliz geografi Maykl Neysh ta'kidlaganidek, XIX asr maktablardagi geografiya fanini o'rganishdagi asosiy e'tibor muayyan hududdning geografik nomeklaturasini mexanik sanab o'tish, o'rganish va yod olishga qaratildi va Buyuk Britaniya ta'limda tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bolalarga mavzu mohiyatini eslab qolishlari uchun kerak bo'lgan qofiyalarni o'ylab topishlariga ham imkoniyatlar yaratiladi. XX asr boshlarida o'qituvchilar o'quvchilarga turli xil ko'nikmalarni rivojlantirishga ko'proq e'tibor bera boshladilar, jumladan xaritalar chizish va o'qish , hududning rejalarini ruzish va unga yonaltirilgan diagrammalardan foydalanish.

Xorijiy didaktikada, maktab darsliklari o'qitishning asosiy vositasi sifatida qaralib birinchi navbatda o'quv dasturining asosiy g'oyalari, ta'lim mazmuni mukammal ishlab chiqilganligi bilan ajralib turadi. Darsliklar bir qator funksiyalarni bajarishi lozim ya'ni axborotlashtirish, tizimlashtirish, muvofiqlashtirishlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor beriladi. G'arbiy Yevropa davlatlarida Yevropa kengashi rahbarligida tarix va geografiya fanlariga juda katta ahamyat berilgan. Darsliklar qiziqarli va umumiylilikka ega holatda yaratilgan. Bu umumiylilik ularning dizayn va modellaridadir.

Yevropa va Amerika darsliklari o'rtasida o'xshash jihatlari mavjud bo'lsada ammo sezilarli farqlar ham bor. Har ikala davlatlar asosiy bo'limlari ularning o'z davlatining modellari va xususiyatlari yoritiladi. Yevropa modelining xususiyatlari tavsiflash uchun Buyuk Britaniya darsliklarini ham ko'rib chiqamiz.

Ingliz darsliklari odatiy ba'zan kattalashtirilgan formatda bo'lib nisbatan kichik hajimli 80-100 sahifadan tashkil topadi. Ingliz metodist geografilarining hisob kitoblariga ko'ra mavzu yuzasidagi matn odatda umumiy hajmining 35-45 % ni tashkil qiladi. Fotosuratlar 10-15 % gacha, turli mashqlar o'rtacha 10% ga yaqin, xaritalar 15-20%, grafiklar 5-10% va jadvallar 2-5% ni tashkil qiladi.

Qo'shma Shtatlar tajribasi ham geografiya o'qitish uslublarining o'ziga xos xususiyatlari mavjudligini ko'rsatadi. O'rta maktab uchun mamlakatga xos geografiya darsligi ko'p jihatdan boshqacha ko'rindi. Avvalo uning farqlari darslikning hajmida namoyon bo'ladi. Odatda 500-600 sahifali darsliklar ham mavjud. Darslikda mavzu matnlari hajmning yarmidan oshmaydi, asosiy qismda xaritalar, diagrammalar va grafik tasvirlar egallagan. Ularning soni 100 yoki 150 dan ham oshishi mumkin. Mintaqaviy o'quv qo'llanmalarda maktab o'quvchilari uchun emas balki o'qituvchilar uchun ham keng ko'lamli kirish bo'limlari mavjud. Keyingi yana bir usul bu – "Muhokama". Bu uslub muhum ahamyatga ega, chunki o'quvchilarda notiqlik, ilmiy fikrlash mantig'i va muloqot qobilyatlarini shakllantirishga imkon beruvchi usullardan biridir. Bunda sinfda muhokama qilinadigan mavzu aniqlangandan so'ng ikkita jamoaga ajratiladi. O'qituvchi tomonidan yoki o'quvchilar tomonidan himoyachilar va raqiblar tanlanadi. Ishtirokchilar muhokama mavzusuni darsdan bir necha kun oldin

olishlari mumkin. Muhokamaning o'zida avval rais so'zlaydi, so'ngra himoyachilar va raqiblar jamoalari navbatma-navbat beshta "ma'qul" va "qarshi" fikrlarini keltirishadi. Shundan so'ng har bir tomon raddiyalari eshitiladi va natijalar o'qituvchining buyurug'i asosida u yoki o'quvchilar tomonidan jamoani qo'llab-quvvatlangan holatda umumiylashgan xulosa chiqariladi va g'olib kamanda aniqlanadi.

Keyingi usullardan yana biri "Fiksaj" usuli (foto qog'oz, plastina yoki plyonkaga tushirilgan tasvir). Bunda o'tilgan materiallarni mustahkamlash va shu bilan birga o'quvchilarni mustaqil ishlar qilishga jalb qilishga erishish mumkin. Ularga bo'sh jadval va tasvirlar tushirilgan materiallar beriladi, bu ularga har qanday mamlakat yoki mintaqalarni bir necha ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslash imkonini beradi. O'quvchilar qo'llaridagi fiksajlar yordamida o'zlarining fikr muloxazalarini bildirishlari kerak bo'ladi har qanday fikr mulohazalar qo'llab quvvatlanadi kamchiliklari o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi. Bunday usullar o'quvchilarni ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Yevropaning boshqa mamlakatlarida geografiya fanida o'quvchilar bilan ishlashda o'qitish amaliyoti undan ham yuqori darajada olib boriladi. Bunday tadqiqot usullaridan biri "Loyiha" usuli keng qo'llaniladi. Buning uchun o'quvchi o'zi uchun yangi bo'lgan mavzu materiallarini olishadi va mustaqil tadqiqotlar olib borish bilan birga o'rganadilar. "Loyiha" usulining asosiy shiori "O'rganishga o'rgating" deb nomlanadi. "Loyiha" usuli o'quvchilarni ta'lim jarayonini markazga qo'yadilar, ular turli muammolarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday metodlardan foydalanish bir qator aqliy va amaliy ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Chunki loyiha ma'lum mavzu yoki masala bo'yicha ma'lumotlar to'plash, so'ngra uni tushuntirish bilan ko'rgazma va xaritalar, chizmalar va diagrammalar bilan ishlashni talab qiladi. Bularning barchasi o'quvchilarning mustaqil ishlashi, kerakli ma'lumotlarni topish uni izchil taqdim etish va og'zaki vizual shakllarda namoyish etish qobiliyatini shakllantiradi.

Chet el geografiya fanini o'rganish metodologiyasida, ikkita asosiy yo'nalish mavjud. Bular: sinfda va sinfdan tashqari yo'nalishlar. Sinfdan tashqari ishlarni bajarishda turli xil ta'lim usullaridan foydalaniladi. Xorijiy davlatlarda geografiya fanini o'rganish yuzasidan turli xil adabiyotlar yaratilgan. Ayniqsa ingliz tilida so'zlashuvchi aholi o'rtasida yangidan yangi uslublar yaratish juda qiziqarli jarayondir. O'qitish uslubidagi muhim omil bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlardir. O'qitish uslubini tanlash ko'pincha subyektiv va obyektiv omillarga masalan, yoshi, jinsi, ma'naviy darajasi, o'qituvchining jismoniy mavqeい, matabning moddiy resurslari kabilar. Yosh o'qituvchilar orasida o'qitishning yangi uslublari yaratiladi va amaliyotga keng qollaniladi.

Fransiya pedagogik izlanishlar natijasida "Yakkama-yakka" ishslash ta'limi eksperimental joriy etildi. Bunda sinf o'quvchilari gruhlarga bo'lingan holatda o'quv vaqtlarini belgilashadi. Haftasiga ikki kun tush vaqt va tushdan keyingi vaqtarda darslar olib boriladi. Xorijiy geografiya metodologiyasida darslar mifik

o'quvchilarining ta'lif faoliyatini uchta asosiy shaklini ajratish odatiy holdir bular frontal, individual va gruh.

Butun dunyoda hukum surgan frontal “lot.front-old, al-nisbiy” shakl an'anaviy darsning o'ziga xos timsolidir. Bu shuni anglatadiki, so'rov paytida va yangi materialni tushuntirishda o'qituvchi bir vaqtning o'zida butun sinf bilan ishlaydi turli vazifalarni bajaradi va barcha o'quvchi faoliyatini boshqaradi. O'qitishning bunday shakllari bilan turli xil uslullardan foydalanish mumkin. Frontal uslub o'quvchilarni ijodkorlikga undamaydi ammo kuchli va kuchsiz o'quvchilarni aniqlab olishda, o'quvchilar orasida munosabatlar shakllantirishda bunday uslub juda mos keladi.

Darslarda o'quvchilar bilan ishlashda individual ishslash uslublari o'ziga xos antipotdir (yakka tartibda). Bu uslub yordamida har bir o'quvchi mustaqil ishlaydi. Mavzu matni va mavzudan tashqari bo'yicha topshiriqlar oladi, o'qituvchi rahbarligida xarita va profillar chizadi, savollarga javob beradi, kichik tadqiqotlar olib boradi, masalalar yechadi. Individual ishslashning afzallikkлari shundaki har bir o'quvchi aqliy va jismoniy rivojlanadi, shaxsiy idrok etish xususiyatlari shakllanadi.

Xorijiy davlatlar metodologiyasining yana bir qiziqarli uslublaridan biri bu guruhli ishslashdir. O'quvchilarning gruhli ishslashlari frontal va individual ishslash shakllarini birlashtirish dars jarayonini sifatini yanada oshirishini ta'minlaydi. Shuni ham hisobga olish kerakki gruh shakllari nafaqat darsning o'zini diversifikatsiya (o'zgarish xilma-xil taraqqiyot) qilish uchun (bahs, rolli o'yin, loyiha tayyorlash, amaliy ish) balki ko'plab darsdan tashqari tadbirlarni masalan ekskursiyalarni tashkil qilishda ham qo'llanishi mumkin. Guruhlarda ishslashning turli xil shakllari mavjud. Ular miqdoriy va sifat jihatdan har xil mezonlarga bo'linadi. Ya'ni o'quvchilarni qobiliyatlariga qarab, bir nechta sinflar aralashgan holatga aqliy va jismoniy holatlariga qarab gruhlarga bo'lish mumkin. Bunday usullar Fransiyada ham keng qo'llaniladi.

Germaniyaning asosiy maktablarida “ABC” deb ataladigan tizim qo'llaniladi. uning mohiyati o'quvchilar dasturlari va o'qish darajalariga ko'ra (A) ilg'or, (B) o'rta, (C) past bo'yicha taqsimlanishidir. Yaponiyada esa guruhli o'qitish gruhlar o'rtasida raqobatlarga asoslanadi. Sinf ishini tashkil etishda guruhlarda ishslash asosida tashkil qilinadi. Uni uchta ketma-ket bosqichlarga bo'linga holatda amalga oshiriladi:

1) ishni rejalashtirish, 2) ishni bajarish, 3) ishni umumiylashtirish. Bunday bosqichlarning birinchisida guruhlar tuziladi, ularning har birida yetakchilar tanlanib vazifalar aniqlanadi. Ikkinci bosqichda guruhdagi o'quvchilar ishni bajarishadi, bunda barcha turdag'i axborot manbaalaridan foydalanishlari mumkin. Keyingi bosqichda guruhlardagi hisobotlar qabul qilinadi. Sinf o'quvchilari va o'qituvchi tomonidan muhokama qilinib umumlashtirilgan natijalar e'lon qilinadi.

G'arb davlatlarida geografiya fanini tashkillashtirishda muammoli ta'lif mutlaqo yangi usul hisoblanmasada ammo bunday yondashuv juda samarali hisoblanadi. Muammoli ta'lif jarayoni XX asrdan buyon foydalanib kelinayotganiga qaramay so'ngi vaqtarda juda ko'p e'tiborga sazovor bo'linayotgan uslublardan biridir. Bunday

uslub ijodiy qobilyatlarni, nutqiy savodxonlikni rivojlantiruvchi uslub sanaladi. Muammoli ta'linda mavzu muammosini o'rganish jarayonida dastlab muammoning tarkibiy qisimlarga ajratib olinadi. O'quvchi muammoni turli xil texnika va texnologiyalardan, ommaviy axborot, sitatistik ma'lumotlarni o'rganish jarayonida bartaraf etishga harakat qiladilar. Bunday ta'limning yana bir samarali jihat shundaki o'quvchilar ma'lumot izlash bilan bir qatorda yangi bilimlarni o'zlashtirishga ham erishiladi.

G'arbiy Yevropada geografiya darslarini tashkillashtirishda "Rolli" uslublar metodologiyasining eng muhim shakllaridandir. Xorijiy davlatlar adabiyotlarini tahlil qilganimizda rolli uslublar mavzularni o'zlashtirishda eng muhim ko'nikmalarni shakllashtirish, bolada erkin ijodiy fikrlash qobilyatini rivojlantirish, shaxsiy qarorlar qabul qilishga undaydigan uslublardan biridir. Maktab amaliyotida rolli o'yinlarni o'ynash, hayotiy vaziyatlarni sahnalashtirishni o'z ichiga oladi. Rolli o'yinlar olingan rolni erkin o'ynash imkoniyatini beradi. Real hayot va etimologik (taqlid, vaziyat), harakatlar ssenariy bo'yicha o'ynaladi. Rolli o'yinlarning oddiyroq va murakab turlari mavjud. J.Stolman dehqonchilik o'yini geografik mavzularni o'zlashtirishning eng oddiyroq va muhim shakllaridandir. Bunda o'quvchilar o'zlarini fermerlar deb tasavvur qilishadi. Ushbu fermerlar rolini o'z zimmsiga olgan bolalar biologik jarayonlar, iqlim, iqtisodiyot va qishloq xo'jaligi haqidagi bilimlaridan oqilona foydalanishlari kerak. Dehqonchilik uchun eng muhim omillar va ulardan samarali foydalanish to'grisida ma'lumotlar to'playdilar. Bolalar rollar ijob etayotganlarida ularning ijodkorlik va ilmiy ko'nikmalari ham shakillanib dars sifatini oshirishga erishiladi.

Quyida keltirilgan uslublar rivojlangan davlatlarda juda muhim hisoblanadi. Chunki buday uslublar yordamida ta'lim sifatini oshirishda, mamlakatda malakali kadrlar tayyorlashda sezilarli yutuqlarga erishish mumkin. Mamlakatimiz ta'lim-tarbiyada samarali islohotlar amalga oshirishni talab etayotgan hozirgi davrda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish ayni muddaodir. Chunki davlat taraqqiyotida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligi uchun yerlar ochishda, sanoat korxonalarini barpo etishda, aholi turar joylarini shakllashtirishda shak-shubhasiz geografiya fanini yetarli darajada o'zlashtirish bilan erishish mumkin. Xorijiy davlatlar ta'lim tizimini o'rganish va mamlakatimiz maktablarida qo'llash orqali geografiya fanini yanada mukammal o'rganish va o'quvchilarni kelajakda to'g'ri kasb tanlashlarida o'z ahamiyatini ko'rsatadi.

Xulosa. Bugun mamlakatimizni iqstisodiy-ijtimoiy jihatdan o'rganayotganda faqatgina sanoat korxonalari, xomashyo resurslar, ishlab chiqarish salohiyatini tanishish bilan cheklanmagan xolatda dars jarayonini tashkillashtirish, o'quvchilar olayotgan bilim va ko'nikmalarini rivojlangan kelajagi buyuk davlat bilan koprik sifatida mustahkamlash lozim. Geografiya darslariga qo'yilayotgan talab va vazifalar o'quvchilarni erkin fikirlashga, darslarga qiziqishlarini ortishiga asos boladigan darajada

**5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR**

olib kelish uchun xorijiy ta'limgan texnologiyalari asosida ta'limgan tizimini olib borish va tashkillashtirish foydali bo'ladi.

Xorij maktablarida geografiya fanini o'qitishning o'ziga xos xuxusiyatlari, ya'ni darslarda geografiya oid faqat birgina obyekt emas balki bir qancha ob'ektlarni umumiylashgan holatda o'quvchilarni o'zlashtirishi oson va qizqarli dars jarayonini shakillantirishga alohida etibor qaratilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. S.A.Abduvohidov, Z.A.G'aniyev. "Geografiya ta'limgan metodokasi" SamDU nashiryoti, 2021-328 b.
2. O.A.Mo'minov. "Geografiya ta'limgan metodikasi" , -T.:O'qituvchi, 1986 y.
3. 2. Горбанев В. А. Реформы географического образования в Великобритании //География в школе. – 1996. - №5.
4. [Www.uz.edu.uz](http://www.uz.edu.uz)
5. <https://kun.uz>